



YAPON TILIDA ONOMASTIKA

Tilavova Kumush Toxirjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yapon tili filologiyasi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastika haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Asosan onomastikaning sohalaridan biri bo'lgan mifonimya ya'ni yapon xalq dostonlari, hikoyalari, ertaklarida, afsonalarida ucharaydigan hayoliy va afsonaviy atoqli otlar haqida fikrlar o'rin olgan. Shuningdek, maqolada dostonlar tilidagi shaxs nomlarining, tarixda yashagan real shaxs nomlari hamda voqealar bayoni uchun o'ylab topilgan, to'qima obrazlarga ajratilgan holda mulohaza yuritiladi. To'qima va hayoliy obrazlar timsolida o'quvchi ongida turli xil qarashlar shakllanadi.

Kalit so'zlar: onomastika, mifonimiya, real va noreal nomlar, obraz, to'qima va hayoliy obrazlar, yapon xalq dostonchiligi.

Annotation. This article describes a brief overview of onomastics. Mythology, which is one of the fields of onomastics, thoughts about famous and fantastic horses appearing in Japanese folk epics, stories, fairy tales, and legends. Also, the article discusses the names of people in the language of our epics, the names of real people who lived in history, and the woven images invented for the narration of events. Different views are formed in the reader's mind in the form of texture and imaginary images.

Key words: onomastics, mythonymy, real and non-real names, image, textile and imaginary images, Japanese folk epic.

Onomastika - bu nomlarni o'rganadigan fan. Barcha atoqli otlarning yig'indisi, ularning tilda qo'llanilishi, biror bir xalqning tilidagi real va fantastik buyumlari nomlanilishi tushuniladi. Har bir yangi davr inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashi tushunchasida tub burilishlar ro'y berishi bilan taraqqiyot sari ilgarilab boradi. Borliq haqidagi turli xil yangi tushunchalarni ongda jamlab, ularni ma'lum belgilariga guruhlash va umumlashtirish qobiliyati inson tafakkurining gultojidir. Ammo insonning muloqot tajribasi, til tarixi, til o'z vazifasini tafakkurning faqatgina umumlashtirish usuli bilan ish ko'rgan holda ado etishi mumkin emasligini, ba'zi narsa va hodisalarni alohida, yakkalab olingan holda, nomlash hayotiy zaruriyat ekanini ko'rsatadi. A. V



Superanskaya fikricha “Onomastikada- atoqli otlar bu muayyan xalq tilida real, hayoliy va taxminiy ob’ektlarni nomlash uchun qo’llaniladigan atoqli otlar majmuidir”[1;178].

Onomastika tashuvchining jamiyatdagi roli va mavqeiga ishora qiladi. Nomlangan shaxs haqida biror narsani ochib berishdan tashqari, shaxsiy ismlar jamiyat ichidagi ijtimoiy tuzilma va qiymat haqida tushuncha beradi. Onomastika Yaponiyada ijtimoiy ierarxiyaning murakkabligini aks ettirgan holda yakkaxon nomini saqlab kelmoqda. Shunday qilib, shaxsiy nomlar ijtimoiy va individual jihatlarni ramziy nomlaydi. Har xil turdagi ismlar: odamlarning ismlari (ismlar, otasining ismi, familiyasi, taxalluslari), joy nomlari: (mamlakatlar, tumanlar, shaharlar, shaharlar, qishloqlar), landshaft nomlari: (dengizlar, daryolar, soylar, ko’llar, tog’lar, tepaliklar, vodiylar, o’rmonlar, botqoqlar), binolarning nomlari: (uylar, cherkovlar, pablar, maktablar, aeroportlar, mehmonxonalar, temir yo’l vokzallari), Ko’chalar: (yo’llar, ko’chalar, ko’priklar, o’tish joylari, kanallar, yuk tashish yo’llari), hayvonlarning nomlari: (uy hayvonlari, poyga otlari, sigirlar), etnik va ijtimoiy guruhlarning nomlari: (xalqlar, siyosiy partiyalar, klublar,), sport jamoalari, tadbirlar nomlari: (musobaqalar, yarmarkalar, poygalar), astronomik xususiyatlarning nomlari: (sayyoralar, yulduzlar), transport vositalarining nomlari: (masalan, samolyotlar, lokomotivlar, kemalar), tijorat mahsulotlarining nomlari: (shokoladlar, vinolar), ijodiy asarlarning nomlari (kitoblar, filmlar, spektakllar, she’rlar), badiiy adabiyotdagi nomlar bilan bir qatorda real dunyoda ham ro’yxatni davom ettirish mumkin.

Maqolada onomastika sohalaridan biri ya’ni mifonimiya haqida fikr yuritiladi. “Mifonim” - yunoncha “mifog”- afsona, ertak; + “onoma” atoqli ot, ya’ni afsona, epiopiya, ertaklarda uchraydigan atoqli otlar deya ta’rif berilgan. “Mifonim” esa afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda uchraydigan hayoliy va to’qima obrazlarda uchraydigan atoqli otlardir. Ularning yig’indisi “mifonimiya”, shunday onomastik ko’lamni o’rganuvchi soha nomi esa “mifonimika”dir . Shu bilan bog’liq holda, keyingi yillarda “mifozoonim”, “mifotoponim”, “mifofitonim”, “mifoantroponim” kabi terminlar ham qo’llanilmoqda. M.I.Steblyn Kamenskiy mif tabiatini izohlar ekan: “Mif - bu voqelik bo’lib, u qanchalik haqiqatga zid bo’lmasin , yaratilgan va yashab kelgan joyda ayni haqiqat deb qabul qilindi” - deydi. Haqiqatan ham , ibtidoiy inson mifdagi voqelikni inkor etib bo’lmas haqiqat sifatida qabul qilgan. Ularga nisbatan mana shu ishonch, og’izdan-og’izga, avloddan -

avlodga o'tib kelishiga sabab bo'lgan. Mif- insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichiga xos so'z san'atining boshlang'ich namunasi. U behad qadimiy so'z san'ati bo'lib, o'zida juda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan, tevarak - atrofda yuz berayotgan voqeliklar mohiyatini ilg'amagan davrlarda paydo bo'lgan. Ibtidoiy insonlar zamonidagi turish - turmush, dunyoqarash va e'tiqodiy tushunchalarni o'z mazmuniga singdirgan. Miflar ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning ilk asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi edi. Barcha folklor janrlari singari mitlarda ham so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Mifning ijodkori xalq. Faqat unda ibtidoiy insonlarninggina bilimi, ruhiy kechinma va tushunchalari aks etadi. Ijod qilinish jarayoni g'ayrihuuriy holda kechgan. Anonim ijodkorning o'zi tushunmagan hodisani talqin etish, uni bilishga va tushunishga intilish istagi asosida g'ayriixtiyoriy tarzda ijod qilingan miflarda eng qadimgi folklor xususiyatlari namoyon bo'ladi [2;50].

Yapon mifologiyasi - bu Yaponiya arxipelagidagi orollarda paydo bo'lgan an'anaviy hikoyalar, xalq ertaklari va e'tiqodlari to'plami. Shinto va buddist an'analari yapon mifologiyasining asosidir. Koreya, Aynu va Okinava miflari bilan ming yillik aloqa tarixi ham yapon mifologiyasining asosiy ta'siridir. Yapon miflari arxipelagning topografiyasiga, shuningdek, qishloq xo'jaligiga asoslangan xalq diniga bog'liq va Shinto panteonida son - sanoqsiz kami (yaponcha "xudolar" yoki "ruhlar") mavjud. Bugungi kunda e'tirof etilgan yapon miflari uchun ikkita muhim manba Kojiki va Nihon Shokidir. Kojiki yoki "Qadimgi narsalar yozuvi" Yaponiya afsonalari va tarixining saqlanib qolgan eng qadimgi yozuvidir. Bundan tashqari, Shintoshu yapon xudolarining kelib chiqishini Buddist nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Yapon mifologiyasining diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bu imperator oilasining kelib chiqishini tushuntirish bo'lib, u tarixan imperatorlik chizig'iga xudolikni belgilash uchun ishlatilgan.

Yapon miflari og'zaki an'analari, adabiy manbalar jumladan, an'anaviy san'at va arxeologik manbalar orqali uzatiladi. Yaponiya tarixining ko'p qismida jamoalar asosan izolyatsiya qilingan bo'lib, bu hikoyalarni aytib bergan odamlar yashagan geografik joylashuvning o'ziga xos xususiyatlari atrofida mahalliy afsonalar va afsonalarning rivojlanishiga imkon beradi.



Edo davridagi yapon olimi Motoori Norinaga Kojikini talqin qilgan va uning sharhlari, izohlari va talqinlarini to'ldirish uchun muqobil manbalardan foydalanish bugungi kunda olimlar tomonidan yapon miflarining hozirgi tushunchasiga ta'siri tufayli o'rganilmoqda.

Bilamizki, yapon tili onomastikasida ham mifonimlar atoqli otlar guruhiga kiradigan to'qima obrazlarning nomlari hisoblanadi. Umuman qissa, hikoya, ertaklardagi obrazlar, nomlar va tavsilotlar, goh fantastik detallar orqali, goh kinoyaviy ifoda orqali bayon etilarkan, yozuvchining maqsadi yosh kitobxonlarni mushohadaga undash, o'z yurti tarixini o'rganish, vatani va xalqining taraqqiyotiga hissa qo'shishga undash ekanligi anglashiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni, xattoki katta yoshdagi kishilarni ham davr taraqqiyotining barcha muammolari haqidagi mavzulari qiziqtiradi. Kichik bolalar xalq dostonlari va adabiy ertaklar tabiat, vatan, vatanparvarlik, ota-onaga muhabbat, axloq-odob va kitob o'qishga da'vat ruhidagi asarlar bilan birga insonni teranroq o'rganishga oid ertak va hikoyalarni katta qiziqish bilan o'qiydilar.

Nafaqat bizda, balki turli xil davlat adabiyoti o'quvchilari uchun bir xildir. Birgina misol, har bir xalqning o'ziga yarasha tarixi bor. Shu jumladan Yaponiya tarixi va turmush tarzi haqida turli xil ertaklar va hikoyalar yaratiladi. Ertaklar, dostonlar va hikoyalarda obrazlar shakllantiriladi. Obrazlar orqali turli xil qarashlar ko'rsatib beriladi.

Yapon adabiyotida ham biz turlicha ertak, doston va hikoyalar uchramiz. Masalan, Akutagava Ryunoskining "O'rgimchak ipi" asari misolida ko'rib chiqamiz.

やがて御釈迦様はその池のふちに御佇おたたずみになって、水の面おもてを蔽おおっている蓮の葉の間から、ふと下の容子ようすを御覧になりました。この極楽の蓮池の下は、丁度地獄じごくの底に当って居りますから、水晶すいしようのような水を透き徹して、三途さんずの河や針の山の景色が、丁度覗のぞき眼鏡めがねを見るように、はっきりと見えるのでございます。

Ko'p o'tmay, Budda hovuz bo'yida turardi va suv yuzasini qoplagan lotus barglari orasidan birdan pastdagi go'zallikni ko'rdi. Bu jannat ko'li shunchalik chuqur ediki, jahannamning qaridan



o'tib ketardi. Uning shaffof suvi orqali Igna tog'i bilan Sandzu daryosi xuddi durbinda ko'rinayotgandek aniq ko'zga tashlanardi.

極楽の蓮池-jannat ko'li

針の山- igna tog'i

Bu hikoyada ko'l va tog'ning atoqli oti ya'ni nomlanishi "Jannat ko'li" va "Igna tog'I" deb nomlangan. Bu atoqli nomlar orqali yozuvchi hikoyasini yanada chiroyliroq va o'quvchiga aniq hikoya mazmunini yetqazib bergan. Biz bilamizki jannatni tasavvurimizda juda chiroyli qilib tasvirlaymiz. Ko'lning nomini ham jannat ko'li deb nomlanishi, hikoyadagi ko'lning juda ham chiroyli tasvirlanganidan dalolatdir. Aksincha, igna tog'i haqida ham gapirsak, ignani biz juda ham kichik, ingichka va o'tkir ekanligini bilamiz. Endi igna tog'ni tasavvur qilaveraylik. Shunchalik katta tog' ignali bo'lishi o'quvchi tasavvurini torta oladigan darajada tasvirlab bergan.

Bundan tashqari turli hikoya va ertaklar va dostonlarda ko'pgina mifonimik atoqli otlarni uchratamiz. Aslida ramziy ma'noda nomlansada, lekin shu nom orqali ko'pgina o'quvchi ongida tushunchalar bo'ladi. Birgina atoqli nom butun bir hikoya, ertak yoki hikoyalarning mazmunini ochib beradi. Asarlarda qatnashgan turli xil atoqli nomlar asar mazmuni haqida hikoya qiladi. Yaponiya yozuvchilari ham o'zlarining asarlarida afsonaviy, hayoliy va to'qima obrazlardan foydalanishadi. Bu obrazlar asar qahramonlari, joylar, majoziy narsalarning nomlanishiga ko'ra yoziladi. Birgina, hikoya o'qishimiz orqali biz asar mazmunini anglaymiz. Chunki obraz ya'ni atoqli nomlar orqali asar ichiga kirib boramiz. Mana shunday atoqli nomlar, qahramonlarning harakterlari misolida asar mazmuni yoritiladi. Masalan, quyidagi obrazlarni yapon hikoyalari, ertaklari, dostonlari va she'riyatida ko'p uchratamiz [3;6-8].

Ajdar- afsonaviy maxluq. Yapon adabiyotida balki, turli xalqlar og'zaki ijodida qanotli, ikki va undan ortiq boshli va og'zidan o't puflaydigan afsonaviy ilon obrazi. Doston, ertaklarda bosh qahramon yo'lida uchraydigan asosiy to'siq va uni yengib o'tish albatta shart qilib qo'yilgan. Hozirgi Yaponiya, Korea, Xitoy va Sharqiy Osiyo ibodatxonalarida saqlanib qolgan shomonlar odatiga ko'ra, teatrlarda ajdar va ilon raqslari o'ynaladi.



Ajina- yapon xalq og'zaki ijodidadagi demonologik salbiy obraz. Ajina yovuz ruhlar haqidagi animistik tushuncha, e'tiqod mahsuli. Og'zaki ijod namunalarida ajina tashlandiq joy, chakalakzor, kimsasiz o'tloqlarda uchraydi, asosan suluv qiz, chaqaloq, qo'zichoq, echki qiyofalarida namoyon bo'ladi.

Ma'bud – kishilar sig'inadigan iloh. Yaratilayotgan hikoya va dostonlarda kishilar ma'budga sig'inuvchi sifatida qarashadi. Ibadatxonlarda asosan sig'inishadi, jang paytlarida ma'budlarning kichik haykalchalaridan foydalanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E, Uluqov N. O'zbek Onomastik terminlarining izohli lug'ati.- Namangan: 2006. – B.178.
2. Abdurahmonov D, Bektimirov H. O'zbek xalq dostonlari onomastikasi.- Toshkent: 1967. – B.50.
3. Japanese mythology , New revised , New York , N.Y. , 1983 – pp.6-8.
4. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА В ОБЩЕСТВЕ //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
5. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
6. Lutfilloeva F., Madaminovich T. I. Teaching Japanese Hieroglyphics Based on Mnemonics //Available at SSRN 3567573. – 2020.
7. Maxmudovna L. F. The Role of Mnemotechnic Method in Teaching Japanese Language Hieroglyphs //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 12. – С. 69-72.
8. Fakhriniso L. The Japanese language teaching technologies based on computer simulation models //Asian Journal of Research in Marketing. – 2020. – Т. 9. – №. 4. – С. 1-7.
9. Yuldasheva S. The Main Directions of the Organization of Production Processes at Industrial Enterprises in the Digital Economy //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-194.



10. Karimova N. M. et al. Pedagogical Conditions for Students to use Critical Thinking in the Development of Interethnic Communication //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – Т. 10. – №. 2S. – С. 4211-4219.
11. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2017. – Т. 2. – №. 3. – С. 64.
12. Махмудова М. ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал. – 2017.
13. Jamalova N. U. POSSIBILITIES OF USE OF FOLK PEDAGOGY IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND PERSONAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 191-193.
14. JAMALOVA N. BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI //Monografia pokonferencyjna science, research, development# 32. 2. Berlin,. – 2020.
15. UTKIROVNA J. N. Pedagogical Innovation and Integration in the Educational Process of Primary Education //JournalNX. – Т. 6. – №. 09. – С. 250-253.